

## CHET ELDA O'QISHNING MUAMMOLARI VA AFZALLIKLARI

*Andijon davlat chet tillari instituti  
 Anvarova Muslimaxon Dilshodbek qizi  
 Xomidova Malohat Oktyabrjon qizi*

**Annotation:** Ushbu maqolada chet elda o'qishning afzalliklari va muammolari tahlil qilingan. Xorijda ta'lif olish talabalarga sifatli bilim olish, madaniy almashinuvda ishtirok etish va til ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, moliyaviy qiyinchiliklar, madaniy moslashuv muammolari va oiladan uzoq yashash kabi qiyinchiliklar ham mavjud.

**Kalit so'zlar:** chet elda o'qish, ta'lif, afzalliklar, muammolar, madaniy almashinuv, til o'rganish, sifatli ta'lif, moliyaviy qiyinchiliklar, moslashuv, xalqaro tajriba.

**Abstract:** This article analyzes the advantages and challenges of studying abroad. Pursuing education in a foreign country provides students with opportunities to gain quality education, engage in cultural exchange, and improve language skills. However, challenges such as financial difficulties, cultural adaptation, and living far from family are also present.

**Keywords:** studying abroad, education, advantages, challenges, cultural exchange, language learning, quality education, financial difficulties, adaptation, international experience

**Аннотация:** В данной статье анализируются преимущества и трудности обучения за рубежом. Обучение за границей предоставляет студентам возможность получить качественное образование, участвовать в культурном обмене и улучшать языковые навыки. Однако существуют и сложности, такие как финансовые трудности, культурная адаптация и жизнь вдали от семьи.

**Ключевые слова:** обучение за рубежом, образование, преимущества, трудности, культурный обмен, изучение языков, качественное образование, финансовые трудности, адаптация, международный опыт.

Bugungi globallashgan dunyoda chet elda ta'lif olish yoshlarga yangi ufqlarni ochib beruvchi muhim imkoniyatlardan biri sifatida qaralmoqda. Ko'plab davlatlarda oliy ta'lif sohasida yuqori darajadagi yutuqlar qayd etilib, yoshlarni jahon miqyosida tan olingan universitetlarda o'qish imkoniyatlari jalb qilmoqda. Chet elda o'qish nafaqat sifatli ta'lif olishni, balki xalqaro tajriba orttirishni, turli madaniyatlar bilan tanishishni va shaxsiy rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar ochishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, xorijda ta'lif olish jarayoni turli qiyinchiliklarni ham keltirib chiqaradi

Umrida chet elga borishni orzu qilmagan inson bo'lmasa kerak. Birimiz o'qish, birimiz ishlash, yana boshqa birimiz sayohat qilish uchun hayolimizda qaysidir bitta, hatto bir nechta chet davlatni rejalashtirib qo'yganimiz aniq..Hatto oramizda Amerika orzusida "Green card" o'ynab ko'rganlar ham bo'lsa ajab emas.Bundan tashqari, tengdoshlarimiz orasida shu kunlarda turk tilini bilish darajasini belgilovchi sertifikatni qo'lga kiritib, Turkiyaga ketayotganlar ham ko'paymoqda. Bir necha kun avval do'stlar bilan shu mavzu haqida gaplashib qoldik. Kimdir o'qishning magistratura bosqichini boshqa davlatda o'qishini, kimdir ishslash uchun ketishini, kimdir sayohat uchun bir bor bo'lsada, chet davlatga chiqishini aytib mavzuni qizitdi.Hatto, oramizda qaytib kelmaslikni o'ylaganlar ham bor. Biroq, bir do'stimizning farqli, ko'pchilik kutmagan fikri barchamizni hayron qoldirdi: "Men shu yoshga kirib, birorta chet davlatga borishni o'ylamagan ekanman. Menga shu yer poytaxt-Toshkent yoqadi. "Baribir "O'z uying o'lan to'shaging", bundan tashqari, "Toshkentning nonini yegan chunchuq, Makkadan ham qaytib keladi" degan naqlar bor" - dedi.Bugun shu mavzu doirasida 8 yil mobaynida Turkiyada yashab, oliy ta'limning bakalavr va magistr bosqichlarini tamomlab, O'zbekistonga qaytgan yurtdoshimiz Zebo Fazliddinova bilan suhbatlashdik.Avvalo, Turkiyaga ketish tarixingiz haqida gapirib bersangiz. Bu qanday bo'lgan?Turkiyaga ketishimga, avvalo,hali hamon Turkiyada yashayotgan opam sababchi bo'lганlar. Chunki ular o'sha paytda u yerda o'qir edilar va birga o'qishimizni xohlaganlar.Albatta, o'zim ham xohlaganman (kulib).So'ogra bakalavrni ham Turkiyada o'qishga qaror qilib, 2014-yil oktabr oyida ketganman.O'sha paytda 17 yoki 18 yoshda edim.Shu paytgacha hech qayerga chiqmagan qiz boshqa bir davlatga bir o'zim ketganman. Turkiyaga borganimda, samolyotdan tushishim bilan dengiz havosi bilan yuzlashganman.Istanbul havosi judayam toza edi. Va Turkiyaga ketishim birdaniga aniq bo'lib qolganligi uchun avvaldan qaysi yo'nalishda o'qishni reja qilmagan edim. U yerga borib universitetlarga hujjat topshirayotganimda, turkologiya( turk tili) yo'nalishini tanladim.

- Turkiyaga borganingizda qanday qiyinchiliklar bo'lgan? - Qiyinchilik deyarli o'lмаган. Chunki yuqorida aytganimdek, opam bilan yashaganman.Turar joy izlab, sarson bo'lмаганман. Til bo'yicha ham qiyalmaganman,chunki Turkiyada universitetga kirishdan avval turk tilini bilish majburiy bo'lган.Bilmaganlar, qo'shimcha darsga borishardi.Men ham qo'shimcha darsda 5 oy o'qib, keyin o'qishga kirganman.-Sizningcha,Turkiyaga nima uchun borgan ma'qul:o'qish uchunmi, ishslash yoki sayohat uchun?-Turkiyaga o'qish, ishslash, sayohat qilish – hammasi uchun borish kerak.Lekin, agar sizning yoshingiz o'qish uchun yetarli, ya'ni talaba yoshida bo'lsangiz, birinchi o'rinda o'qigani borgan ma'qul.Chunki chet ellik bo'lsangiz ham talabalarga Turkiyaning barcha viloyatlarida imkoniyatlar qilib beriladi.Turk vatandoshlariga qanday imkoniyatlar berilsa, chet elliklarga ham shunday afzalliklar yaratib beriladi.Har xil yordamlar berishadi, grandlar ajratishadi.Endi ishslash uchun

borish kerakmi? Ha, ishlash uchun ham ketish kerak, albatta, ishlashga layoqatli bo'lsangiz.Misol uchun, Turkiyada tikuvchilik fabrikalari, tibbiyotda juda ish ko'p. Chunki bu sohalar rivojlangan deyishimiz mumkin.Sayohat qilish uchun...Siz biror chet davlatga chiqmoqchisiz va qayerga borishni o'ylab boshingiz qotayotgan bo'lsa, Turkiyaga borishni maslahat qilardim.Sababi, bu davlat madaniyat jihatdan ham yaqin, ham ko'rмаган jihatlarimiz ham bor. Ya'ni ham yevropacha, ham sharqona madaniyati bor. Masalan, Istanbulni o'zida, yana Bursada ham tarixiy, ham o'yinkulgu uchun, ham turizm tomonlama ajoyib joylari bor.Agar sayohat uchun dengizli joylarni istasangiz, Turkiyada Mug'la viloyati bor, u yerda Marmaris, Bodrum va juda ko'p dam olish maskanlari bor.Moliyaviy taraflama ham bu davlatga sayohat qilish juda qulay bo'lib qoldi.Hozir o'rtacha besh yuz-olti yuz dollarga bemalol sayohat qilib, dam olib kelish mumkin.-Turkiyaning yaxshi va yomon taraflari nima deb o'ylaysiz?-Turkiyaning yaxshi taraflari...Birinchi o'rinda,ularning insoniyligini yaxshi ko'raman.Yordam berishni juda yaxshi ko'rishadi, bizga o'xshab yordamsevar xalq.Keyin ularda diniy e'tiqod kuchli, misol uchun men necha marta viloyat almashtirgan bo'lsam, uyim doim masjidning oldida bo'lardi.Bu men atayin masjid oldidan uy olardim degani emas,shunchaki masjidlari juda ko'p.Yomon taraf bu men javob berishga juda qiynaladigan savol.Chunki Turkiyaning hech yomon taraflarini ko'rmadim.Turkiyada ekanligimda televidenyaga intervyularga borar edik,ular : "Mana faloncha paytdan beri Turkiyada ekansan, senga bu yerni nimasi yoqmadi"- deb so'rayverishardi.Yo'q rostdan bilmayman, chunki men u yerda hech yomonlik ko'rmadim. To'g'ri, u yerdagi ba'zi bir jihatlar bizning mentalitetga to'g'ri kelmaydi, lekin bu har kimning o'ziga bog'liq.Nima deb o'ylaysiz, o'zi chet davlatga chiqish qanchalik muhim hayotimizda? -Albatta, kerak. Misol uchun, siz chet el haqida kino ko'rishingiz, kitob o'qishingiz, hamma fikrga ega bo'lishingiz mumkin. Lekin borib ko'rмагansiz.Bu nima degani, men sizga sariq rangni bu sariq, har taraflama sariq deyishim mumkin, siz sariqligini o'qigan bo'lishingiz mumkin, lekin o'z ko'zingiz bilan ko'rмагansiz. Aytmoqchi bo'lganim, imkoniyatingiz bo'ladigan bo'lsa, qayer bo'lishida qat'iy nazar chet davlatga chiqing.Siz o'sha yerga borib qaytib kelganingizdan keyin hozirgi o'zingiz bo'lmaysiz.Sizning dunyoqarashingiz, fikrlashingiz o'zgaradi.Hayotning chegaralardan iborat emas, asli juda kengligini ko'rasiz. Davlatlarni almashtirib turish, insonga baribir foydali bo'ladi deb o'ylayman.-Turkiyadan o'zingiz yaxshi deb bilgan qaysi jihatlarni o'rgandingiz va hozir shularni qay birini hayotingizda qo'llayapsiz?-Millatsevarlikni...Ular o'z mamlakatlarini juda yaxshi ko'rishadi. Turkiyada bu narsa juda e'tiborimni tortgan.Masalan, ularda davlat bayrog'ini hamma joyida ko'rishimiz mumkin: xoh hukumatga qarashli binolar bo'lsin, xoh dam olish maskanlari.Hatto har bitta uylarda ham bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, turklar tarixda O'rta Osiyodagi ko'p davlatlarni Rossiya bosib olgandan keyin ular o'z tilini yo'qotgan, deb

o'ylashadi..Turklar bunga qarshi qattiq kurashishadi. Ya'ni, ular boshqa davlatdan kelgan odamga ham avvalo turk tilida gapirishadi. O'z tillarini millatlarini juda sevishadi. Men ham O'zbekistonda ekanman, ruscha gapirgan odamga hech qachon rus tilida javob qaytarmayman.Bilasiz, bizda ruscha so'zlashishlar judayam ko'p. Men ham bularga qarshi vatanparvarlikni o'rganib, shuni hayotimda qo'llayapman.

Bundan tashqari, hozir O'zbekistonda OTM da o'qituvchilik qilar ekanman, Turkiyadagi ta'lif tizimini qo'llashga harakat qilaman.Ya'ni talabalarimga biror sababi bo'lib kelmagani uchun, imtihon natijalariga "3" qo'yib, "4" qo'yib o'tkazib yubora olmayman.Necha baho olishsa shu. Mening bu harakatlarim millatimiz uchun bir qadam bo'ladi deb o'ylayman.-Turkiyaga bormoqchi bo'lganlarga qanday tavsiyalaringiz bor?- Qizlar uchun kechqurun tor, oraliq ko'chalaridan yurmaslikni tavsiya qilardim.Bu nafaqat Turkiya, balki boshqa davlatlarga ham taalluqli.Bundan tashqari Istanbulning ma'lum tahlikali hududlari bor.Ularni oldindan bilib olishingizni va imkon qadar o'sha yerlarga bormaslikni so'ragan bo'lardim.Yana Turkiyaga borishdan avval o'zingiz uchun xarita qilib olishingizni maslahat berardim..Masalan, Istanbuldagi bir hududga bormoqchi bo'lsangiz, uning yonidagi yana bir joyga kirish imkoningiz bo'lishi mumkin.Buning uchun siz qayerda nima borligini bilishingiz kerak.Shunda oson aylana oladi.

**KANADA:**Sharofiddin Qoraboyev. Asl kasbi qurilish bo'yicha oliy malakali muhandis. Kanadada 10 yildan beri istiqomat qiladi. U kishining aytishicha, hech qanday siyosiy sabablar emas, balki farzandlarining xorijda ta'lif olishini istaganligi uchun oilasi bilan chet elga ketishga qaror qilishgan:"Savol judayam murakkab. Lekin qisqa qilib javob beradigan bo'lsam, albatta, qachondir Vatanga qaytish rejamiz bor. Bu yerda 10 yil umrimizni berdik, bolalarning o'qishlari,...o'zimiz ham hozirgi darajaga yetish uchun tahsil oldik, qattiq harakat qildik. Endi ana shu erishgan narsalarimizni bir kunda yoki bir yilda yo'qotish biz uchun judayam qiyin. Shuning uchun ham O'zbekistonga qaytish qarorini berishimiz ma'lum vaqt talab qiladi. Lekin oxirgi qarorimiz, albatta, Vatanga qaytish bo'ladi. Lekin buning qachon ekanligini aniq aytolmayman", deydi suhbatdoshimiz."Buning sababi - chet eldan O'zbekistonga qaytib boradigan xoh talaba bo'lsin va xoh mutaxassis bo'lsin, o'zining bu yerdagi maktabda, universitetda olayotgan ta'limi O'zbekiston sharoitida qaysi darajaga to'g'ri kelishini aniq bilishi kerak. Ya'ni, O'zbekiston davlati bu borada ma'lum standartlarni ishlab chiqishi kerak, ya'ni, ta'lif masalasida ekvivalentlar aniq bo'lishi lozim. Aks holda biror qarorga kelish juda murakkab bo'ladi.,

**AVSTRIYA-**Yodgor Obid, adabiyotshunos, muhojiratga yuz tutganiga qariyb 20 yil bo'lgan. 1997 yildan buyon Avstriyada yashaydi. O'zbekistonda asosiy qiladigan ishim – she'r yozardim. Keyin O'zbekiston Yozuvchilar Uyushmasida She'riyat bo'yicha adabiy maslahatchi bo'lganman. O'zbekistondan chiqib ketishimga asosiy

sabab bo‘lgan narsa – to‘g‘riso‘zligim, talabchanligim bo‘lgan. Yozgan she‘rlarim ularga hukumatni haqorat qilgandek bo‘lib tuyulgan. Prezident Karimov qudratga kelgandan keyin 13 marta qamaldim. Undan oldin Sho‘rolar davrida ham bo‘lgan, Sibirda uch yil bo‘lib kelganman, deydi Yodgor Obid:"Chet elda qolib ketish niyatim bo‘lgan emas, haliyam yo‘q. Vatan degan tuyg‘u bor. Vatan faqat non, pul yoki imkoniyatlar emas, bu – inson qalbi bilan, inson tuyg‘usi bilan bog‘liq qadriyat. Shuning uchun ham, Vatandan kechish – jondan kechish bilan barobar. Avstriya meni yaxshi qabul qildi. Siyosiy boshpana, keyin fuqarolik ham berdi. Lekin Vatandan ko‘ngil uzilgani yo‘q. Fuqarolik berishdan oldin bir uch-to‘rtta yozuvchilar, do‘stlarim menga bildirmay, Moskva, keyin O‘zbekistonga sayyoh sifatida borib, ba‘zi meni tanigan odamlardan so‘rashgan. To‘g‘rirog‘i, ular mening haqiqiy ahvolimni, ya‘ni qaytsam, menga nima bo‘lishini o‘rganish uchun maxsusan yuborilganlar. Fuqarolikni olib bo‘lib, oradan 5-6 yil o‘tgandan keyin suhbatlashib o‘tirib, menga bu sirni ochishdi. "Nima deyishdi, kimlardan so‘radingiz?", dedim. Falon, falon, Moskvada PEN-klub, inson huquqlarini himoya qilish tashkilotlari, O‘zbekistondan bir-ikkita yozuvchilardan so‘rashibdi. Hammasi bir ovozdan, "Kelsa, o‘ldiradi", deb javob berishgan. Men shunaqaligini O‘zbekistondalik paytimdayam bilardim. Mening boshimda o‘sha xatar haliyam bor".

JANUBIY KOREYA-Suhbatdoshimizning iltimosiga muvofiq, ism-sharifi keltirilmadi. Uch yildan beri Janubiy Koreyadaman. Bu yerda plastik mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonada ishlayman. Mehnat shartnomasi bilan kelganman. O‘zbekistonda hech qayerda ishlamaganman, deydi u:"Sharoit tarafidan yaxshiyu, oiladan yiroqda bo‘lmas ekan. Chunki millat boshqa, bular musulmon emas, ularning yashash tarzları, yejish-ichishlari menga to‘g‘ri kelmaydi. Muddatim tugashiga ketaman, o‘shangacha yetib borsam agar, chidolsam. Sog‘inch azob bermasa, chidayman. Buyog‘i bir yarim yil qoldi. Qolish niyatim yo‘q. Bilmadim, haligacha ko‘nikkanim yo‘q. Baribir o‘zimizda toza havo-da... Baribir boshqacha. Yemishdan mening sog‘inadiganim yo‘q. O‘zimga yoqqanini yeb ketaveraman. Unaqa narsalarni sog‘inmayman"."O‘zbekistonga qaytgach, ish topishga...bilmadim, topolmaymanmi, bilmadim...Bu yerdagiga o‘xhash ish topish qiyin. Nimagaki, o‘qimaganmiz, biror biznesni yo‘lga qo‘yamiz-da, bozordami, Janubiy Koreya bilan kelishilgan holdami, oldi-sotdi ishini yo‘lga qo‘yamanmi, shunday rejam bor, lekin. To‘g‘ri, hamma ishning o‘ziga yarasha muammosi bor. Pulni osonlikcha topib bo‘lmaydiyu. Bu yerdayam mehnat qilsangiz beradi, u yerdayam mehnat qilsangiz beradi". "Endi, qachon,..qachon pul bo‘lmay qolsa, afsus cheksam kerak. Masalan, oldin shu yerda, Janubiy Koreyada ishlagan akam yaqinda qaytib keldi. O‘zbekistonda oilasini boqolmasdan, qaytib keldi. Hozir borsam, balkim u yerda "svet" ham yo‘qdir. Bu yerda hamma narsa qilsangiz bo‘ladi. Masalan, bizga ko‘p huquq berib qo‘yilgan. Shular qatori huquqlarimiz bor, hamma narsa qilishimiz uchun. Qo‘lingizdan kelsa, tilni bilsangiz, ishni bilsangiz,

xohlagan ishingizni qilsangiz bo‘ladi-da! Xohlagan ishxonamga borib, xohlagan ishimni qilishim mumkin", deydi 3 yildan beri Janubiy Koreyada mehnat qilayotgan suhbatdoshimiz.

**GOLLANDIYA-Cypat** манбаси,hollandSuhbatdoshimizning iltimosiga muvofiq, ism-sharifi keltirilmadi. Etnograf olim. U oilasi bilan Gollandiyadan bospana topganiga to‘rt yildan oshib qolgani, siyosiy tazyiqlar tufayli O‘zbekistonni tark etishga majbur bo‘lganini aytadi. Tilimizda barer bo‘lgani, sog‘lig‘imda biroz muammolar borligi, jismoniy og‘ir mehnat qilolmaganimiz uchun shaxsan menda va rafiqamda bu yerda ishslash imkoniyati yo‘q, deydi u:"Ochig‘ini aytadigan bo‘lsak, golland xalqi, gollandlar bizga umuman yaxshi muomalada. Mana, biz yaqinda boshqa shahardan uy olib, ko‘chdik, qo‘shnilarimiz bizga juda yaxshi muomalada. Umuman biz Gollandiyada tazyiqqa uchraganimiz yo‘q, hammasi yaxshi. Faqatgina Vatanni qumsaymiz, qarindosh-urug‘larni sog‘inamiz. Shu yaxshi kunlar kelsa, sharoitlar o‘zgarsa, O‘zbekistondagi qattiq rejim ozroq yumshasa,..o‘sani kutib yashaymiz, xolos. Bu yerda umuman boshqa qiyinchilik yo‘q. O‘zbekistondagi kabi maosh olib turib, uchma-uch yashash holatlari bizga yaxshi ma‘lum, o‘zimizning boshimizdan o‘tgan. Bu yerda maosh olmaganlarning ham ijtimoiy ta‘minotlari, faqat qochqinlar uchun emas, umuman Gollandiyada rasmiy yashayotganlar uchun bir moddiy muammo yo‘q". "Bu yerdagi turmush tarzi biznikidan farq qiladi. O‘zbekchilik deymiz... Ko‘pchilik o‘zbekchilik deb, minus tomoniga olishadi. Lekin Vatan vatan-da, bu yerda G‘arb, madaniyatlarda farq bor. Mana, biz hozir ko‘chib kelgan joyimizda musulmonlar ko‘p ekan, marokashliklar, turklar, qo‘shnilarimiz bor turklar, ularning hammasi bizni ko‘rib, "turkmisan", deb yaxshi muomalada bo‘ladi. Turklar shunchalik yaxshi, bir millatki, bu yerda o‘zimizning hamqishloqdek ko‘ramiz. Chunki Vatandan yiroqdamiz. Baribir, Vatan bu –Vatan. Vatanga hech nima teng kelmaydi. O‘zbekistonda qo‘ni-qo‘shnichilik, mahalla, to‘y, boshqa ijtimoiy aloqalar juda faol. Bu yerda hamma narsa yetadi, ammo hammasi o‘zining qobig‘ida, o‘zi bilan. Bu yerda ijtimoiy muhit boshqacha". "Vatanni hamma tomonlama sog‘inamiz: Tabiatini ham sog‘inamiz, insonlarni sog‘inamiz, qarindoshlarni sog‘inamiz, yashagan shahrimiz, tug‘ilgan qishlog‘imizni sog‘inamiz. Bu yerda bir tabiatga chiqsangiz, juda go‘zal. Birorta bir o‘zlashtirilmagan burchagi yo‘q, hammasi joy-joyiga qo‘yilgan, biz o‘sha o‘zimizdagи yovvoyi tabiatni ham sog‘inamiz, men ish yuzasidan O‘zbekistonning hamma qishloqlariga kirib chiqqanman, shevalar va urf-odatlar bo‘yicha mutaxassisman, shuning uchun ham Vatanga teng kelmaydi-da, Vatan, endi, ulug‘ sajdagoh.

**AMERIKA-Suhbatdoshimizning iltimosiga muvofiq, ism-sharifi keltirilmadi.** Shu yilni ham hisobga olib aytganda, besh yildan beri Amerikada istiqomat qilaman. Talabaman, bu yerda shifokorlikka o‘qiyan. Amerikaga "Green card" yutib olib, oilamiz bilan birga kelganmiz, deydi u:"Albatta, O‘zbekistonga qaytishni tanlagan

bo‘lardim. Bir umr Amerikada qolmagan bo‘lardim. Lekin hozirning o‘zida emas. Inson bir qarorga kelishdan avval buning foydali, keyin zararli tomonlarini o‘ylaydi. Men hozir Amerikada o‘qishga kirganman, tibbiyot sohasiga, hozir qaytib borganimda bu yerdagi tahsilim to‘xtab qoladi, keyin O‘zbekistonga ham hech qanaqangi foydam tegmaydi. Shuning uchun ham, birinchi o‘qishimni tugatib, qanaqadir xalqimga ham, davlatimga ham munosib odam bo‘lib qaytmoqchiman. Amerikada o‘qishimni tugatib, ishimni O‘zbekistonga borib davom ettirmoqchiman. Lekin, shunda ham, O‘zbekistonga qaytishimga o‘qish, ish emas, Vatanimni qanchalar sog‘inganim sabab bo‘ladi". "Amerika, albatta, yomon emas. Uni hech qachon yomon demoqchi emasman. Bu yerda hamma xohlagan narsamni topganman. Lekin Amerika pul bersayam, sharoit bersayam, ta‘lim bersayam, baribir, Vatan bo‘lolmaydi. Menimcha, bir kun yashasayam, bir yil yashasayam, inson uchun tug‘ilib o‘sgan joyi baribir Vatanligicha qoladi. Amerikaga ko‘nikdim, deganda esa, bu, qanaqadir, o‘qish sharoitiga ko‘nikdim, keyin til o‘rgandim, odamlar bilan kelisholdim, bu tomondan ko‘nikdim. Lekin men hech qachon Amerikaga Vatanim sifatida qaray olmasam kerak. Amerikada boshqa joyga kelib qolganimni ba‘zida sezib qolaman. Masalan, o‘qishga borganimizda ham. Qanaqadir odamlar bilan gaplashganimda ham baribir sezilib qoladi. "Voy, o‘zbeklarimiz bo‘lsa, bunaqa ochiqko‘ngil, shunaqa yaxshi odamlar. Muomalasi zo‘r. Lekin, baribir, mingta ingliz bilan gaplashsam ham, bitta o‘zbek bilan so‘zlashganimda, qanaqadir zavqlanib, mehr bilan...yig‘lab yuboraman". "Baribir, aytib o‘tganidemdek, O‘zbekiston – Vatan, mehri boshqacha. Lekin mana bu sharoit, tartib jihatdan Amerika baribir ham farq qilib turadi. Birinchidan, xalqqa o‘shanaqa e‘tibor, yordamning O‘zbekistonda bo‘lishini juda-juda xohlardim. Bu yerda ijtimoiy, iqtisodiy tomondan xalqqa juda katta e‘tibor berilgan, keyin yoshlarga juda-juda ko‘p sharoit yaratilgan, ana shular O‘zbekistonda qo‘llansa, judayam foydali bo‘ladi, deb o‘ylayman", deydi besh yildan buyon Amerikada istiqomat qilayotgan o‘zbekistonlik suhbatdoshimiz.

**ROSSIYA-Suhbatdoshimizning iltimosiga muvofiq, ism-sharifi keltirilmadi.** Rossiyaga kelganimga to‘rt-besh yilcha bo‘lib qoldi. Mahalliy shifoxonalarning birida shifokor bo‘lib ishlayman. Ochig‘i, bu yerga ishslash maqsadida keluvdik. Keyin imkoniyatlar ochila borgan sari, Rossiyada qolib, sertifikat olib, o‘z kasbim bo‘yicha ishslash va o‘qishga ahd qildim, deydi o‘zbekistonlik mehnat muhojiri: "Bilasizmi, bu yerda o‘qishlarim bitsa, qaytish niyatim bor. Birinchidan, O‘zbekistonning, Vatanning tuyg‘usini hech narsaga tenglashtirib bo‘lmaydi. Vatan – boshqa narsa. Vatanda qarindoshlarimiz ham bor, aka-ukalarimiz ham bor va O‘zbekistonda bu yerga nisbatan mehr-muhabbat ham bor. Hurmat-e‘tibor bor, bir-birining holidan xabar olish degan gap bor, bu narsalar bu yerda yo‘q. To‘g‘ri, bu yerda ko‘p narsaga erishish mumkin. Ammo lekin boshingizga biror ish tushsa, mehmondorchiliklar yoki boshqa

holatlarda... Umuman, bizning Sharq mentalitetimiz Vatanni tashlab ketishga yo‘q qo‘ymaydi". "Endi, bilasizmi, har qanday qiyinchilik holatlari, har qanday diktatura holatlari, har qanday erkinlikni cheklash holatlari bu – hammayoqda bor. Bu – ma‘lum bir davlatda, ma‘lum bir mamlakatda almashinib turadigan holat. Bu – o‘tuvchi holat. Masalan, o‘n, o‘n besh yil shunday bo‘lib turar, undan keyin joyiga tushib ketar va hokazo, shunga o‘xshagan narsa... Lekin Vatan degan narsa bu – boshqa narsa. Hatto, Vatan haqida Furqat ham, Bobur ham she‘rlar yozishgan-ku, axir. Ularning sharoitlari ham yaxshi bo‘lgan, o‘zga Vatanda podshoh bo‘lishgan, lekin umrbod Vatanni qumsab yashashgan-ku!"" Yoshlik davrlarimiz, o‘qigan paytlarimiz, qarindosh-urug‘larimiz va qishloq odamlarining soddaligi, shunga o‘xhash holatlar sog‘intiradi. Bu yerda biroz millatchilik kayfiyati hukmron. Bu yerdagi mahalliy aholining o‘zining ayblarini boshqa millat vakillaridan ko‘rishi hukmron. Yoki ba‘zilari, "Siz o‘zbeklar kelib, bizlarning ishlarimizni tortib oldingiz va hokazolar", deyishadi. Ammo bu yerdagi odamlarning tilini topsangiz, yaxshi odamlar hamma yoqda bor. Bitta millatni biz yomon, deya olmaymiz", deydi qariyb 5 yildan buyon Rossiyada yashab kelayotgan o‘zbekistonlik shifokor.

### **Xulosa**

Oliy ta’lim sohasida xalqaro tajribani joriy etish O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun dolzarb masala bo‘lib, bu jarayon milliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va global standartlarga moslashtirishga yordam beradi. Xalqaro kredit-modul tizimi, onlayn ta’lim platformalari va xorijiy universitetlar bilan hamkorlik mahalliy ta’lim sifatini oshiradifaoli., ilmiy tadqiqotlar va innovatsion jarayonlarni rivojlantirishga turtki beradi. Biroq, bu jarayonda moliyaviy yetishmovchilik, kadrlar tayyorlash muammolari va texnologik infratuzilmaning cheklanganligi kabi qiyinchiliklar mavjud. Kelgusida xalqaro hamkorlikni kengaytirish, xalqaro standartlarga mos keluvchi o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va malakali kadrlar tayyorlash O‘zbekiston ta’lim tizimini dunyo darajasiga olib chiqishda muhim omil bo‘lib qoladi. Shu bilan birga, milliy ta’lim tizimining o‘ziga xosligini saqlash, milliy kadrlar salohiyatini rivojlantirishga e’tibor qaratish muhimdir.

### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. YOSHLAR OVOZI . 24- Noyabr ,2024- yil . Chet elga boorish hayotimiz uchun foydali(mi) 1.8.2023 yoshlarovosi .uz saytida.
2. “ O‘zbekistonda qaytasizmi yoki chet elda qolasismi”.25-iyun 2013 . yangilandi 26-iyun 2013. BBC NEWS o’zbek.
3. “Xorijda tahsil olishning qanday afzalliklari va kamchiliklari bor” 09.06.2023. Oybarchin yo’lbarsova . fledu.uz saytida.